



“TASDIQLAYMAN”
Urganch innovatsion universiteti
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,
kengash raisi M.M.Masharipov

**Urganch innovatsion universitetida talaba-yoshlar o'rtasida bo'lib o'tgan
“Jadidlar jasorati – millatimiz faxri” hamda “Jadidlar: miliy o'zlik, istiqlol
va davlatchilik g'oyalari” mavzularida insholar tanlovi to'g'risida**

BAYONNOMA

13.12.2024-yil

Urganch shahri

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 428-sonli buyrug'iini ijrosini ta'minlash hamda ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini yangicha tafakkur asosida o'rganish, talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatini shakllantirish, jadidlarimizning badiiy asarlari roli va ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish, jadid bobolarimiz faoliyatini o'rganish, shuningdek, ularning ibratli hayoti va ijodi bilan tanishish maqsadida Urganch innovatsion universitetida talaba-yoshlar o'rtasida bo'lib o'tgan “Jadidlar jasorati – millatimiz faxri” hamda “Jadidlar: miliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari” mavzularida insholar tanlovi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 428-sonli buyrug'i va shu buyruq ilovalari asosida 2024-yil 19-noyabr sanasida Urganch innovatsion universiteti rektorining 56-U buyrug'i va ilovalari ishlab chiqildi hamda tasdiqlandi.

10-dekabr kuni Urganch innovatsion universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), Tashkiliy ishchi guruh raisi **M.Masharipov** Tashkiliy ishchi guruh a'zolari bilan yig'ilish o'tkazdi. Yig'ilishda Tanlovning maqsadi, vazifalari, tashkil etish tartibi va shartlari, tanlov shartlarini baholash mezonlari, g'oliblarni taqdirlash kabi masalar ko'rib chiqildi hamda Tanlov 12-dekabr sanasida o'tkazilishi kelishilib olindi.

Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i **M.Matnazarov** Tanlovni tashkil etish bilan bog'liq barcha tashkiliy ishlarni amalga oshirdi hamda 12-dekabr kuni Tanlovni nizom talablari asosida yuqori saviyada o'tkazilishini ta'minladi.

Tashkiliy ishchi guruh tomonidan tanlov g'oliblari 2024-yil 13-dekabr kuni g'oliblar aniqlandi. Natijalarga ko'ra filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi kunduzgi ta'lim shakli talabalari 22/01-guruhdan **Rustamova Iroda** va 24/01-guruhdan **Yangiboyeva Umida** 1-o'rinni; filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi sirtqi ta'lim shakli 23/05-guruuh talabasi **Kazaqova Barno** 2-o'rinni; boshlang'ich ta'lim yo'nalishi sirtqi ta'lim shakli

21/06-guruh talabasi **Qo'ziboyeva Hilola** va filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi kunduzgi ta'lif shakli 24/03-guruh talabasi **Jumanazarova Guliniso** 3-o'rinni qo'lga kiritishdi. 1-o'rinni qo'lga kiritgan talabalar 2025-yilning fevral-mart oylarida Qoraqalpog'istonda bo'lib o'tadigan Respublika bosqichiga yo'l olishdi.

G'oliblarga universitet tomonidan diplom hamda qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

Kotib



M.Gulumov

Kengash a'zolari:

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar

bo'yicha prorektor, Tashkiliy ishchi

guruh raisi:

 M.Masharipov

Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va

ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash

bo'limi boshlig'i Tashkiliy ishchi

guruh rais o'rinnbosari:



M.Matnazarov

"O'zbek va xorijiy filologiya" kafedarsi

o'qituvchisi, Tashkiliy ishchi

guruh kotibi



M.Gulumov

"O'zbek va xorijiy filologiya" kafedarsi

mudiri, Tashkiliy ishchi

guruh a'zosi



Q.Olloyorov

"O'zbek va xorijiy filologiya" kafedarsi

dotsenti, Tashkiliy ishchi

guruh a'zosi



S.Samandarova

"O'zbek va xorijiy filologiya" kafedarsi

katta o'qituvchisi, Tashkiliy ishchi

guruh a'zosi




O'.Panayeva

"O'zbek va xorijiy filologiya" kafedarsi

o'qituvchisi, Tashkiliy ishchi

guruh a'zosi



M.Matqurbanova

“O‘zbek va xorijiy filologiya” kafedarsi
o‘qituvchisi, Tashkiliy ishchi
guruhi a’zosi

 G.Kazakova

“O‘zbek va xorijiy filologiya” kafedarsi
o‘qituvchisi, Tashkiliy ishchi
guruhi a’zosi

 N.Bekchanova